



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevena	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIIYASI VA INTEGRATSIIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIIY FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LASHTIRISH MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIISHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziyboyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLİYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Quliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLİYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI	446
Kamilov Farxod Shamilevich	
TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI	453
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	
РАЗВИТИЕ АСПЕКТОВ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	459
Юсупов Махамадамин, Закирова Умида Махамадаминовна	
LIZING OLUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITILISHI	462
Sadritdinov Baxodir	



YASHIL IQTISODIYOT VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	467
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TEXNOLOGIK RESURLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH	474
Kazakov Olim Sabirovich	
OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI HAMDA ZARURLIGI.....	479
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
SANOAT KORXONASIDA INNOVATSION JARAYONLAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISHNING METODIK YONDASHUVLARI.....	485
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	491
Kafiyev Xojiakbar Xosilbek o'g'li	
BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	496
Xolmatov Otabek Oybek o'g'li	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALAR.....	499
Sheraliyeva Saida Azatovna	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KLASTER USULLARINI QO'LLASH.....	504
Mizrob Maxmudovich Tashov	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В ПРОЦЕССАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ.....	514
Ли Илларион Георгиевич	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВИДОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА УЗБЕКИСТАНА.....	519
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
УСТОЙЧИВОЕ И ЦИФРОВОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ	525
Усманова Азиза Баходировна	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI.....	529
Temurbek Olimovich Mamayunusov	
КОМПЛЕКСНОЕ УЧЁТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ПРОЦЕССОВ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	536
Эркинбаев Якуббой Хушнуд угли	
ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINING DAVLAT QARZ BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA QARZ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH INSTITUTSIONAL VA AMALIY QO'LLANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH	541
Raxmatov Hamid Hasan o'g'li, Akramov Azizjon Kabirovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SEKTORIDA INSTITUTSIONAL VA INVESTITSION OMILLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA QO'SHMA TA'SIRI.....	549
Fayziyev Oybek Raximovich	
INSTITUTIONALIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION EFFECTIVENESS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF OECD COUNTRIES' EXPERIENCE IN GOVERNANCE FOR PUBLIC ADMINISTRATION REFORM.....	556
Sarvar Saidov Khairulloyevich	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	562
Zaynutdinova Umida Djalalovna, Miraxmedova Maftuna Ibragimovna	
SAMARQAND VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING ROLI.....	568
Gulnora Mardievna Shadieva, Avazova Charos	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ СФЕРЫ УСЛУГ	572
Шадиева Гулнора Мардиевна, Рустамова Фируза	



KICHIK BIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH.....	578
Eminchayev Baxodir Sadikovich	
MINTAQA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARINING NAZARIY TAHLILI.....	583
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
AKTIVLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARNING TAHLILI	587
Rasulov Muxammad Bobur Fazliddin o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARI (NPL) KO'RSATKICHI ORQALI BANK TIZIMI BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	594
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov A.V.	
AKSIYADORLAR BILAN MANFAATLI MUNOSABATLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AKSIYADORLAR VA ULARNING HUQUQLARINI TA'MINLASH.....	600
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	



AKSIYADORLAR BILAN MANFAATLI MUNOSABATLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AKSIYADORLAR VA ULARNING HUQUQLARINI TA'MINLASH

Raimov Farrux Avazjon o'g'li

International School of Finance Technology and Science instituti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Elektron manzil: rakhimovexclusive@gmail.com

ORCID: 0009-0007-2769-2261

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlar va ularning huquqlari, ushbu huquqlarni himoya qilish masalalari hamda sohaning huquqiy kafolatlari tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, aksiyadorlar huquqlarini ta'minlash nafaqat kompaniya korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, balki bozor ishonchini oshirish va investitsiya muhitining barqarorligini mustahkamlashda muhim omil ekani asoslab berilgan. Aksiyadorlar uchun kafolatlangan huquqlarni ta'minlash kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, moliyaviy samaradorligi hamda ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan izohlangan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, aksiya, aksiyador, investitsiya, dividend, kompaniya, qimmatli qog'ozlar, kapital.

Abstract. This article provides a systematic analysis of shareholders, their rights, issues related to their protection, and the legal guarantees governing this field. In addition, the study substantiates that ensuring the protection of shareholders' rights is essential not only for improving corporate governance, but also for enhancing market confidence and maintaining the stability of the investment environment. The article further explains that safeguarding guaranteed rights for shareholders contributes to the long-term sustainability of companies, their financial performance, and the development of management practices based on social responsibility.

Key words: joint-stock company, share, shareholder, investment, dividend, company, securities, capital.

Аннотация. В статье комплексно рассматриваются акционеры и их права, вопросы их защиты, а также правовые гарантии в данной сфере. Обосновано, что обеспечение и защита прав акционеров имеют ключевое значение не только для совершенствования системы корпоративного управления, но и для повышения доверия со стороны рынка и обеспечения стабильности инвестиционной среды. Отмечено, что гарантированное соблюдение прав акционеров способствует долгосрочному устойчивому развитию компаний, повышению их эффективности и формированию модели управления, основанной на принципах социальной ответственности.

Ключевые слова: акционерное общество, акция, акционер, инвестиции, дивиденд, компания, ценные бумаги, капитал.

KIRISH

Aksiyadorlar kompaniyaning egalari sifatida o'z investitsiyalarini himoya qilish hamda kompaniya faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ularning huquqlari nafaqat kompaniyaning moliyaviy holati va foydasidan bahramand bo'lishni, balki kompaniya boshqaruviga doir qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish, shuningdek, kompaniyaning kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha fikr bildirish huquqlarini ham o'z ichiga oladi. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari aynan ushbu huquqlarning amalda ta'minlanishi



va ularning buzilishining oldini olishga qaratilgan qonuniy hamda tashkilot ichki mexanizmlar majmuasidan iboratdir.

Kompaniyalar aksiyadorlarga nisbatan adolatli, shaffof va huquqiy jihatdan kafolatlangan siyosatlarini amalga oshirish orqali ishonch va barqarorlik muhitini shakllantiradi. Aksiyadorlar kompaniyaning kelajagini belgilovchi qarorlarda ishtirok etish orqali o'zlarini kompaniya faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida his etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan, aksiyadorlar uchun kafolatlangan huquqlar nafaqat individual manfaatlarni ta'minlash, balki kompaniyaning umumiy muvaffaqiyati hamda iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar bilan manfaatli munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiq etilgan.

Xususan, Vahobov A.V. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, axborot ochiqqligini ta'minlash hamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishlari samaradorligini oshirish muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

G'ozibekov D.G. aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruv va dividend siyosatining aksiyadorlar manfaatlariga ta'sirini tahlil qilib, barqaror va shaffof dividend siyosati aksiyadorlar bilan uzoq muddatli manfaatli munosabatlarni mustahkamlashini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Solomon tomonidan olib borilgan izlanishlarda korporativ boshqaruv tizimida aksiyadorlar bilan o'zaro munosabatlarning shaffoflik, hisobdorlik va adolat tamoyillari asosida tashkil etilishi kompaniya faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Muallif aksiyadorlar bilan muntazam muloqot olib borish, ularning manfaatlarini strategik qarorlar qabul qilish jarayonida hisobga olish hamda axborot ochiqqligini ta'minlash aksiyadorlar ishonchini mustahkamlashini ilmiy asosda izohlaydi.

Shuningdek, Trickerning zamonaviy korporativ boshqaruvga bag'ishlangan tadqiqotlarida aksiyadorlar bilan manfaatli munosabatlar kompaniya qiymatini oshiruvchi muhim strategik omil sifatida baholanadi. Muallifga ko'ra, shaffof dividend siyosati, samarali nazorat mexanizmlari va hisobdor boshqaruv tizimi menejerlar hamda aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini kamaytiradi. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlarida uzoq muddatli barqaror rivojlanish va investitsion jozibadorlik ta'minlanadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar aksiyadorlar bilan manfaatli munosabatlarni takomillashtirish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi:

1. Tizimli tahlil – aksiyadorlar bilan moliyaviy munosabatlar mexanizmlarini yaxlit va o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganish maqsadida qo'llanildi.
2. Qiyosiy tahlil – turli mamlakatlar tajribasini solishtirish hamda eng ilg'or amaliyotlarni aniqlash uchun foydalanildi.
3. Statistik tahlil – O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish maqsadida amalga oshirildi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, shuningdek O'zbekiston fond birjasi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumot olish huquqi. Aksiyadorlar kompaniya faoliyati, moliyaviy holati va boshqaruv qarorlari to'g'risida muntazam ravishda aniq va to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Bu holat ularga kompaniya faoliyatini kuzatish va o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini yaratadi.

2. Dividendlar va foyda taqsimoti. Aksiyadorlar kompaniya foydasidan adolatli ravishda dividend olish huquqiga ega. Dividendlar aksiyadorlar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalarni oqlash va ularning manfaatlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

3. Boshqaruvda ishtirok etish. Aksiyadorlar kompaniyaning strategik qarorlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ovoz berish, direktorlar kengashini tanlash yoki kompaniyaning umumiy siyosatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.



4. Huquqiy himoya. Aksiyadorlarning huquqlari buzilgan taqdirda, ular o'z manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish yoki boshqa huquqiy vositalardan foydalanish huquqiga ega.

5. Diskriminatsiya va nohaqlikdan himoya. Aksiyadorlar o'rtasida tenglik ta'minlanishi lozim. Har bir aksiyador o'z ulushiga mutanosib ravishda teng huquqlarga ega bo'lishi kerak, bu esa kompaniya ichki boshqaruvida adolatni ta'minlaydi.

Mazkur kafolatlar kompaniya boshqaruvida shaffoflikni mustahkamlashga, aksiyadorlar o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirishga hamda investitsiya muhitining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Aksiyadorlar huquqlarini tizimli ravishda ta'minlash kompaniya faoliyatining barqarorligini oshirish va bozor ishonchini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va kafolatlash samarali korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aksiyadorlar huquqlarini ta'minlash nafaqat moliyaviy manfaatlarni ro'yobga chiqarishga, balki kompaniya faoliyatida ijtimoiy mas'uliyat va etik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Biroq aksiyadorlarning foydani taqsimlash yoki boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'siri ularning egalik qilayotgan ulushlariga bog'liq bo'lib, aksiyadorlar minoritar (kichik ulushga ega) va majoritar (yirik ulushga ega) aksiyadorlarga bo'linadi. Bunda majoritar aksiyadorlar qarorlar qabul qilish jarayonida nisbatan kuchli ta'sirga ega hisoblanadi¹.

Umuman olganda, amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
- depozit hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda o'z ulushiga mutanosib ravishda mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ovoz berish huquqi orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida belgilangan tartibda to'liq va ishonchli axborot olish;
- olingan dividendlarni erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini belgilangan tartibda qoplashni talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish va boshqalar².

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga hamda jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklavlarning belgilanishi aksiyadorni mazkur aksiyalar bo'yicha jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va dividendlar olish huquqidan mahrum etmaydi.

Davlat aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi. Jamiyatning xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatiga davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi. Davlat organlarining qonunga xilof harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Davlat aksiyador sifatida boshqa aksiyadorlar bilan bir qatorda milliy qonunchilikda belgilangan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Aksiyadorlar huquqlari quyidagi subyektlar tomonidan himoya qilinadi:

- jamiyatning boshqaruv organlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va fond birjalari;
- qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining ixtiyoriy birlashmalari;
- sug'urta tashkilotlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi;
- auditorlik tashkilotlari;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

Aksiyadorlar hamda qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.

Shu bois, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish nafaqat kompaniya boshqaruvi, balki bozor ishonchini oshirish va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlar

1 S.Elmirzayev – "Korporativ boshqaruv". Darslik. Toshkent – 2022. (196-bet)

2 "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 2014-yil 6-maydagi 370-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni



uchun kafolatlangan huquqlarni ta'minlash kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan boshqaruvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Korxona moliyalashtirish manbalarini to'g'ri tanlash uchun, avvalo, o'zining moliyaviy holatini, o'sish rejalarini va umumiy strategik maqsadlarini baholashi lozim. Bugungi kunda an'anaviy moliyalashtirish manbalari bilan bir qatorda zamonaviy va muqobil moliyalashtirish usullaridan ham keng foydalanish mumkin. Jumladan, kraudfanding, P2P-kreditlar, xayriya mablag'lari va davlat grantlari yangi imkoniyatlarni ochib beruvchi moliyaviy manbalar sirasiga kiradi. Ushbu manbalarni tahlil qilish orqali aksiyadorlik jamiyati o'z strategik rejalariga mos va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni aniqlashi mumkin.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyati qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega. Aksiyalar, odatda, obligatsiyalarga nisbatan yuqoriroq daromadlilik va risk darajasiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Dividendlar korxona foydasiga bog'liq bo'lganligi sababli aksiyalar bo'yicha daromad kafolatlanmagan. Kompaniya aksiyalar emissiyasi orqali qo'shimcha o'z kapitaliga ega bo'ladi, biroq bu holat qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan yangi aksiyadorlar sonining ortishiga olib keladi.

Obligatsiya emissiyasi orqali kapital jalb qilish korxona uchun nisbatan arzonroq moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Biroq ushbu imkoniyatdan foydalanish uchun korxona bozorda ishonchli va barqaror mavqega ega bo'lishi zarur. Obligatsiyalar kupon stavkalari orqali kafolatlangan daromadlilikka hamda belgilangan so'ndirish muddatiga ega bo'lgani sababli investorlar uchun jozibador qimmatli qog'ozlar sifatida e'tirof etiladi (1-jadval).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kichik korxonalar moliyalashtirishda, asosan, ichki manbalardan foydalanishni afzal ko'radilar. O'rta va yirik korxonalar esa tashqi moliyalashtirish imkoniyatlaridan, xususan, nisbatan past foizli resurslar hisobiga mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega. Biroq moliyalashtirish usullarining tanlanishi ko'p jihatdan korxonaning strategik maqsadlari va moliyaviy holatiga bog'liqdir.

1-jadval. O'z va qarz kapitali jalb qilish imkoniyatlari

Xususiy kapital	Qarz kapital
Aksiya emissiyasi	Obligatsiya emissiyasi
Jalb qilingan kapitalni qaytarish majburiyati mavjud emas.	So'ndirilish muddati aniq va kapital qaytarilishi shart.
Yuqori kredit reytingi talab qilinmaydi.	Ijroiy kredit tarixi va reytingiga ega bo'lish talab etiladi.
Yangi investorlar bilan tajriba almashish imkoniyatini taqdim etadi.	Qarz kapitali bo'lganligi sababli foydani bo'lishish majburiyati mavjud emas.
Aksiyadorlar sonining ortishi egalik huquqini kamaytiradi.	Egalik huquqiga ta'sir ko'rsatmaydi.
Yangi investorlar jamiyat qarorlariga ta'sir ko'rsatadi.	Muvaffaqiyatli obligatsiyalarni joylashtirish kompaniya mavqeini mustahkamlaydi va kredit reytingini oshirishga yordam beradi.
Investorlar foydadan dividend ko'rinishida ulush oladi, bu kapital bahosini oshiradi.	Kupon to'lovlari kredit foizlaridan past bo'lishi mumkin, bu kapital bahosini kamaytiradi.
Soliq imtiyozlari mavjud emas.	Soliq imtiyozlari mavjud.
Kapital uchun to'lov korxona foydasiga bog'liq.	Aniq sanalarda foiz to'lovlari mavjud bo'lib, investorlar uchun daromadlilikni kafolatlaydi; korxona uchun majburiyatni bajarmaslik bankrotlik xavfini yuzaga keltirishi mumkin.
	Garov talabi qo'yilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kompaniyaning moliyaviy hamda boshqaruv tizimining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Aksiyadorlar kompaniyaning egalari sifatida o'z investitsiyalarini himoya qilish, kompaniya faoliyati natijasida olinadigan foydadan bahramand bo'lish va boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'lishlari lozim. Ularning huquqlari yetarli darajada samarali himoya qilinmagan taqdirda, kompaniya imijiga zarar yetishi hamda bozor ishonchining pasayishi ehtimoli yuzaga keladi.

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari shaffoflikni ta'minlash, adolatli dividend siyosatini yuritish, boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu chora-tadbirlar aksiyadorlar manfaatlarini samarali himoya qilishga hamda ularning kompaniya faoliyatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aksiyadorlar o'rtasida diskriminatsiya va nohaqlik holatlarining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompaniya boshqaruvi aksiyadorlar huquqlarini kafolatlashga alohida e'tibor qaratishi uzoq muddatda kompaniyaning barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish



nafaqat investitsiyalarni asrashga, balki kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatli hamda etika tamoyillariga asoslangan faoliyat yuritishiga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari kompaniyaning umumiy barqarorligi, obro'si va iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Aksiyadorlar bilan manfaatli munosabatlar tizimini takomillashtirish hamda aksiyadorlar huquqlarini ta'minlash maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, axborot ochiqligi va shaffoflikni oshirish maqsadida jamiyat faoliyati, moliyaviy natijalari va strategik rejalariga oid ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlar hamda elektron platformalar orqali aksiyadorlarga o'z vaqtida taqdim etish tizimini yanada rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish hamda yirik aksiyadorlar tomonidan bosim o'tkazilishining oldini olish maqsadida mustaqil direktorlar instituti va audit qo'mitalari faoliyatini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, aksiyadorlar bilan muntazam muloqot mexanizmlarini rivojlantirish uchun investorlar bilan aloqalar (Investor Relations) bo'limlarini tashkil etish orqali aksiyadorlarning murojaatlari va takliflarini tezkor ko'rib chiqish imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni.: <https://lex.uz/docs/-2382409>
2. Elmirzayev S. Korporativ boshqaruv. Darslik. — Toshkent, 2022.
3. Elmirzayev S., Shavkatov N., Sherkuziyeva N., Karimov A., Abduraximova D., Omonov S. Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar. Darslik. — Toshkent, 2023.
4. Karimov A. Aholining bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilish mexanizmlari samaradorligi tahlili. — Toshkent, 2021.
5. Vahobov A. V. Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. G'ozibekov D. G. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruv va dividend siyosati. — Toshkent: Moliya, 2019.
7. Solomon J. Corporate Governance and Accountability. — 4th edition. — Chichester: John Wiley & Sons, 2020.
8. Tricker B. Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices. — 4th edition. — Oxford: Oxford University Press, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
